

Madatov Ithom Yusup o'g'li

SamDU Kattaqo'rg'on filiali dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD

e-mail: ilhommadatov7@gmail.com

tel: +998904693830

Muhamadiyeva Mohinur Baxtuyorovna

SamDU Kattaqo'rg'on filiali

2-kurs talabasi;

e-mail: mohinurmuhammadiyeva99@gmail.com

tel: +998 88 898 19 38

RESPUBLIKAMIZGA INKLYUZIV TA'LIMNING KIRIB KELISHI VA MAXSUS TATBIYAGA MUHTOJ BOLALAR BILAN SOG'LOM BOLALAR O'RTASIDAGI MULOQOTNI TO'G'RI YO'LGA QO'YISH

Annotatsiya. Ushbu maqola respublikamizdagi maxsus tarbiyaga muhtoj bo'lgan bolalarning odiy maktablarda sog'lom bolalar bilan birgalikda bir muosasada ta'lim olishi tug'risida fikr yuritadi, shuningdek, maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar bilan sog'lom bolalar o'rtasidagi munosabat va muloqotni to'g'ri tashkillashtirishga yordam beradi. Maktablarda maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar uchun qulay shart sharoitlar yaratish va o'qituvchilarga maxsus tarbiyaga muhtoj o'quvchi bilan ta'limni tog'ri tashkillashtirishga va shu yullar orqali maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning ijtimoiy muhitga moslashishiga katta yordam beradi

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, maxsus tarbiyaga muhtoj bo'lgan bolalar, Ijtimoiy persipsiya, identifikatsiya, empatiya, refleksiya.

Абстрактный: В данной статье размышляется об обучении детей с особыми потребностями в обычных школах вместе со здоровыми детьми в нашей республике, а также о взаимоотношениях и общении между детьми с особыми потребностями и здоровыми детьми. Создание благоприятных условий для детей, нуждающихся в специальном образовании, в школах и помощь учителям в правильной организации обучения с учащимися, нуждающимися в специальном образовании, и посредством этих способов адаптироваться к социальной среде детей, нуждающихся в специальном образовании.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, дети с особыми образовательными потребностями, Социальное восприятие, идентификация, эмпатия, рефлексия.

Abstract. This article reflects on the education of children with special needs in ordinary schools together with healthy children in our republic, as well as on the relationship and communication between children with special needs and healthy children. helps to organize. Creating favorable conditions for children in need of special education in schools and helping teachers to properly organize education with students in need of special education and through these ways to adapt to the social environment of children in need of special education.

Key words: Inclusive education, children with special education needs, Social perception, identification, empathy, reflection.

Kirish

Inklyuziv ta'lim faoliyati dasturi maxsus ehtiyojlar ta'limi butunjahon konferinsiyasi qabul qilindi. Kanferinsiya UNESCO hamkorligida Ispaniyada 1994-yil 7-10-iyunda o'tkazildi. Uning maqsadi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, milliy yordam uyishmalari, nodavlat tashkilotlar va boshqa bo'limlarni maxsus ehtiyojlar ta'limi amaliyoti, islohati va tamoyillari bo'yicha Salamanka bayonotini hayotga tadbiiq etishning islohatlari va faoliyatlarini bilan tanishtirishdir.

Respublikamizda 2020 yil sentyabr oyida yangi tahrirdagi „Ta'lim to'g'risida“ gi qonun tomonidan tasdiqlandi. Tasdiqdan oldin esa, O'zbekiston Respublikasi nogironlar assotsiatsiyasi mutaxassislar bilan birga qonun loyihasining inklyuziv ta'lim tamoyillariga muvofiqligi bo'yicha tahlili o'tkazdi. Qonunning 20- moddasida Jismoniy, aqliy, sensor va ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etiladi. Ushbu qonunda belgilangan vazifalarni to'laqonli bajarish maqsadida 2020 yil 13 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori, hamda Vazirlar Mahkamasining 2021yil 12 oktyabrda «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 638- qarorlari ishlab chiqildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori bilan tasdiqlangan “2020–2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi”da alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur

adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar shuningdek tegishli kadrlar bilan ta'minlash alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash va boshqalar.

SHuni ham alohida ta'kidlash joizki, ushbu qaror bilan “Umumiy o'rta ta'lim

tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida”gi nizom tasdiqlandi. Unda quyidagilar belgilandi:

- inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish;

-o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tartibi o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish chora-tadbirlari. Shuningdek ushbu qaror bilan quyidagi me'yoriy hujjatlar tasdiqlandi:

- Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat

ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom;

- Sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom;

- Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt

davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta'lim berish tartibi to'g'risidagi nizom.

Asosiy qism: Inklyuziv ta'limning respublikamizga kirib kelishidan asosiy maqsad maxsus tarbiyaga muhtoj bo'lgan bolalarning iltimoiy mihitga moslashishidir. Ba'zi bir maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar ota-onasining yoki bironta inson ko'magisiz yashashni ta'savur qila olisholmaydi ularni mustaqil yashay olishlariga imkon yaratish uchun ham katta yordam beradi. Buning uchun avalom bor inklyuziv ta'limni tashkil etish uchun maktablarda maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning harakatlanishiga qulayliklar yaratib berish kerak va darsliklarni maxsus tarbiyaga muhtoj bo'lgan bolalarning har birining qabul qilish darajasiga mos ravishta darsliklarni tashkillashtirish lozim undan tashqari o'qituvchi va maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar o'tasida to'g'ri muloqatni tashkillashtirish, sog'lom bola va maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning o'rtasidagi muloqotni ham tashkillashtirish lozim .

Ijtimoiy persepsiya deganda, ijtimoiy obyektlar – boshqa odamlar, ijtimoiy guruhlar katta ijtimoiy birlashmalarning idrok qilish jarayoni tushunila boshlandi. Ijtimoiy psixologik adabiyotlarda ushbu atama aynan mana shu mazmunda qo'llaniladi.

Identifikasiya” atamasi o'zini boshqa kishiga o'xshatish ma'nosini anglatadi. Identifikasiya – bu kishining o'zini kishiga, guruhga, namunaga o'xshatishdir. Identifikasiya boshqa kishilarning his-tuyg'ularini, kechinmalarini tushunishga yordam beradi. Inson o'zaro birgalikda harakat vaziyatlarida boshqa kishini o'zining o'rniga qo'yib ko'rishga uringan holda, uning ichki holati, niyatlari, o'y-fikrlari, mayllari va his-tuyg'ulari haqida taxmin qiladi. Bu o'zaro bir-birini tushunishga erishishning yagona usuli bo'lmasa-da, real vaziyatlarda o'zaro ta'sir jarayonida kishilar bu usuldan foydalanadilar.

Empatiya ham boshqa kishini tushunish usullaridan biri sifatida qaraladi. Faqat bu yerda boshqa kishiga tegishli bo'lgan muammolarni ratsional tarzda fikrlash emas, ko'proq uning muammolariga emotsional hamdardlik bildirish ko'zda tutiladi. Demak, empatiya boshqa kishini chuqur idrok etishdir. Ammo subyektga munosabat boshqa kishini faqat undan o'zini chetlashtirgan holda, tashqaridan turib tushunish emas, balki o'zi bilan muloqotga kirishgan individning uni qanday qabul qilishi, uning o'zini qay tarzda idrok etishi va tushunishi ham muhim ahamiyatga egadir.

Refleksiya identifikasiyaga o'xshab, boshqa kishining ichki holatiga kira olish, uning niyatlari, motiv, fikr, hissiyotlarini bila olishga imkon beruvchi mexanizm hisoblanadi. Kundalik hayotimizda identifikasiya va refleksiya ongsizlik darajasida amalga oshiriladi. Inson boshqa kishiga o'zining motiv va xulq-atvorini ko'chirish mumkin.

Xulosa: Respublikamizga inkuliziv ta'lim muommolarini o'rganar ekanmiz avvalom bor maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning har birining qiziqishlariga qarab ularga darsliklar tashkil qilish lozim ularning sog'ligini hisobga olgan holda ularning sog'ligini yaxshilash maqsadida darsliklarni ularni rivojlantirishga yordam beradigan o'quv darsliklarini yaratish , ularni ham jismonan ham ruxan sog'ayishi rivojlanishi uchun shart sharoitlar yaratish, atrofidagi insonlarning unga bo'lgan munosabatini to'g'ri yulga quyish va ularning atrofidagilarga bo'lgan munosabatini to'g'ri shakllanishiga imkon yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining ”Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni . 2020-yil 23-sentabr. O‘RQ-637-son
2. O‘zbekiston Respublikasining Perizidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’limehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berishtizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrda “Alohida ta’lim extiyojlari bo‘lganbolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tastiqlash to‘g‘risida”gi638-qarori.
4. Madatov Ilhom Yusup o‘g‘li Inklyuziv ta’lim Toshkent - 2024